

**HUDUDIIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOIIY  
SIYOSATNING O'RNI VA O'ZIGA XOS JIHATLARI**

*Qarshi davlat universiteti*


*Mustaqil tadqiqotchisi*

***Mahmudov Fayzulla***

Hududiy boshqaruv amaliyotida qo'llaniladigan mexanizmlar ko'p jihatdan o'zaro mos bo'lishi, ularning natijalari esa hududiy ko'rsatkichlar tizimi asosida nazorat qilinishi lozim. Aks holda, boshqaruvning maqsadlari, usullari va natijalari o'rtasida nomuvofiqlik yuzaga keladi. Ayniqsa, hududlarda ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatini tartibga solishda davlatning institutsional ta'siri bilan bozor rag'batlarining o'zaro uyg'unligi yetarli darajada ta'minlanmasa, hududlar rivojlanish darajasidagi tafovutlar yanada chuqurlashishi mumkin.

Shu sababli hududiy rivojlanishdagi tafovutlarni tartibga solishning shakllangan tamoyillari ularning mohiyati, kelib chiqish sabablari, hududiy iqtisodiyot va ijtimoiy soha rivojlanishiga ta'sir etuvchi xavf-xatarlar hamda ularni kamaytirish imkoniyatlarini o'rganishning umumiy metodologik asosini tashkil etadi. Mazkur tamoyillar hududiy tafovutlarning nafaqat salbiy oqibatlarini, balki ayrim hollarda rivojlanish uchun rag'batlantiruvchi omil sifatida namoyon bo'lishi mumkin bo'lgan ijobiy jihatlarini ham tahlil qilish imkonini beradi. Tamoyillar hududiy tafovutlarni tadqiq etish metodologiyasining tarkibiy asosini tashkil etib, ularning umumiy manzarasini aniqlash, baholash va kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishda nazariy tayanch vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, usullar, funksiyalar va modellar hududiy rivojlanish darajasidagi tafovutlarni tartibga solish metodologiyasini ishlab chiqish uchun maxsus vositalar majmuasini shakllantiradi. Mazkur vositalar yordamida hududlar kesimida ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatining holatini baholash, muammoli jihatlarini aniqlash, resurslardan foydalanish samaradorligini o'lchash va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun analitik asos yaratish mumkin. Natijada davlat va bozor

mexanizmlarining o'zaro uyg'unligi asosida shakllantirilgan tashkiliy-iqtisodiy yondashuv hududlarda ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatini samarali boshqarish, mavjud rivojlanish tafovutlarini qisqartirish hamda mintaqaning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiladi. 1.2.3-rasm



**1.2.3-rasm. Hududlarda ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy tartibga solish usullarining tasnifi<sup>1</sup>**

Mazkur rasmda hududlarda ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatini tartibga solishda qo'llaniladigan tashkiliy-iqtisodiy usullar tizimlashtirilgan. Rasmda ushbu usullarni belgilovchi asosiy xususiyatlar va ularga mos keluvchi usul turlari o'zaro bog'liqlikda ifodalangan. Xususan, ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatini boshqarish va rivojlantirish usullari ta'sir ko'rsatish shakliga ko'ra to'g'ridan to'g'ri va bilvosita, shakllanish manbasiga ko'ra ichki va tashqi, ta'sir yo'nalishiga ko'ra rag'batlantiruvchi, cheklovchi va muvofiqlashtiruvchi usullarga ajratilgan.

Shuningdek, rasmda ta'sir etish maqsadiga ko'ra tartibga soluvchi, qo'llab-quvvatlovchi va rivojlantiruvchi usullar, qo'llash darajasiga ko'ra davlat, hududiy va institutsional darajadagi usullar, samaradorlik davomiyligiga ko'ra qisqa muddatli va uzoq muddatli usullar, huquqiy-me'yoriy asosiga ko'ra esa normativ-

<sup>1</sup>

huquqiy va tashkiliy-amaliy usullar tasniflangan. Mazkur yondashuv ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatini boshqarishda turli boshqaruv vositalari va instrumentlarini maqsadga muvofiq ravishda tanlash imkonini beradi.

Rasmda aks ettirilgan tasnif hududiy boshqaruv amaliyotida ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatini kompleks baholash, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha samarali boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishda muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, hududlar kesimida ijtimoiy xizmatlar sifati, resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi, boshqaruv samaradorligi va institutsional rivojlanish ko'rsatkichlaridagi farqlarni hisobga olgan holda mos usullarni qo'llash hududiy rivojlanish darajasidagi tafovutlarni kamaytirishga yordam beradi. Qashqadaryo viloyati misolida mazkur tasnifdan foydalanish ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, hududiy boshqaruv sifatini yaxshilash hamda ijtimoiy xizmatlar qamrovi va sifatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan ushbu rasm mintaqqa iqtisodiyotini rivojlantirishda ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatini tartibga solishning nazariy va amaliy asoslarini ochib beruvchi muhim sxematik model hisoblanadi.


Ichki usullar hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarini va shunga mos ravishda hududiy **tafovutlar** ko'lamini doimiy ravishda tartibga solib borishga xizmat qiladi. Mazkur usullar, avvalo, ichki byudjetlararo transfertlar, soliq mexanizmlari hamda hududiy moliyalashtirish instrumentlarini o'z ichiga oladi. Tashqi usullar esa zarur holatlarda davriy ravishda qo'llaniladigan bevosita ta'sir vositalari bo'lib, ular hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga bilvosita ta'sir ko'rsatish orqali hududiy rivojlanish darajasidagi tafovutlar miqyosida namoyon bo'ladi. O'zbekiston Respublikasida tashqi usullar qatoriga davlat maqsadli jamg'armalari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalarini shakllantirish mexanizmlari kiradi. Ta'sir yo'nalishiga ko'ra ushbu usullar rag'batlantiruvchi, cheklovchi va neytral turlarga ajratiladi. Rag'batlantiruvchi usullar hududlarning rivojlanish salohiyatini oshirishga xizmat qilsa, cheklovchi usullar resurslardan noo'rin foydalanish yoki hududiy

tafovutlarning chuqurlashuviga olib keluvchi omillarni kamaytirishga qaratiladi. Neytral usullar esa umumiy tartibga solish muhitini shakllantirishda yordam beradi.

Eng samarali usullar, odatda, dastlabki bosqichda tegishli huquqiy hujjatlar orqali ularni qo'llash asoslarini yaratish bilan bog'liq bo'ladi. Shu ma'noda, bevosita ta'sir etuvchi boshqaruv usullari aniq natijaga yo'naltirilgan instrumentlar sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday usullar tarkibiga subsidiya, subvensiya va boshqa maqsadli moliyaviy qo'llab-quvvatlash shakllari kiradi. Shu bilan birga, hududiy muvozanatga erishish ko'p hollarda barqaror ishlab chiqarish, uzoq muddatli investitsiya siyosati va keyingi davrda qo'llaniladigan tizimli chora-tadbirlar bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Demak, hududiy rivojlanish darajasidagi tafovutlarni tartibga solishning muvaffaqiyati ko'p jihatdan istiqbolda qo'llaniladigan strategik yondashuvlarga tayanadi. Turli mezonlarga ko'ra, tumanlar, viloyatlar va alohida aholi punktlari rivojlanish darajasiga qarab tegishli toifalarga ajratilishi mumkin. Biroq iqtisodiy jihatdan sust rivojlangan yoki ijtimoiy-iqtisodiy muammolari keskin hududlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat ta'sir choralari ishlab chiqish uchun aniq huquqiy kategoriya, masalan, **“depressiv hudud”** tushunchasini normativ jihatdan mustahkamlash maqsadga muvofiqdir.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etishga oid qaroriga muvofiq hududlar shartli ravishda rivojlanish darajasiga ko'ra guruhlariga ajratiladi. Xususan, yuqori ball to'plagan hududlar “yashil”, o'rtacha natijani qayd etgan hududlar “sariq”, past ko'rsatkichli hududlar esa “qizil” toifaga kiritiladi. Bunday yondashuv hududlarning holatini tezkor baholash, mavjud muammolarni aniqlash va ularga nisbatan differensial boshqaruv choralari qo'llash imkonini beradi. Shunday qilib, hududlarda ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatini tartibga solishda ichki va tashqi usullardan kompleks foydalanish, ularni rag'batlantiruvchi, cheklovchi va institutsional vositalar bilan uyg'unlashtirish, shuningdek hududlarni reyting asosida baholash tizimini joriy etish hududiy rivojlanish

darajasidagi tafovutlarni kamaytirish, resurslardan samarali foydalanish va mintaqaning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. 1.2.4-rasm



### **Hududlarda ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatini tartibga solishning ustuvor tashkiliy-iqtisodiy yo'nalishlari<sup>2</sup>**

Konstitutsiyaviy normalarda hududlarni rivojlantirishning ayrim muhim jihatlari, xususan, mamlakatning ma'muriy-hududiy tuzilishi hamda mahalliy davlat hokimiyati faoliyatining asoslari belgilab qo'yilgan bo'lib, mazkur qoidalar tegishli qonunlar, farmonlar va qarorlar orqali amaliyotga tatbiq etiladi. Shu bois hududiy siyosatni amalga oshirishda konstitutsiyaviy me'yorlarning izchil hayotga joriy etilishi ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatining samarali tashkil etilishi uchun muhim huquqiy zamin yaratadi. Ayniqsa, hududlarda ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport va boshqa ijtimoiy xizmatlar tizimini rivojlantirishda normativ-huquqiy asoslarning puxta shakllanganligi boshqaruv samaradorligini oshiradi.

O'zbekiston Respublikasida hududiy rivojlanish bilan bog'liq huquqiy maydon tahlili shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatini tartibga solishda qonunlar bilan bir qatorda ko'plab qonunosti hujjatlar ham muhim o'rin tutadi. Biroq normativ-huquqiy hujjatlar tizimida qonunlarning ulushi nisbatan

kamligi ayrim hollarda “konstitutsiyaviy norma – qonun – qonunosti hujjat” o‘rtasidagi mantiqiy va funksional izchillikni susaytiradi. Bu esa hududlar kesimida ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatini boshqarish, moliyalashtirish va muvofiqlashtirishda ayrim institutsional murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Shu sababli ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish, ularni hududiy rivojlanish maqsadlari bilan uyg‘unlashtirish zarur.

Hududlarda ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish ko‘p jihatdan davlatning investitsiya va moliyaviy resurslarini to‘g‘ri yo‘naltirishga bog‘liq. Bunda byudjet mablag‘lari, davlat dasturlari, maqsadli jamg‘armalar va investitsiya resurslarini, avvalo, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, xizmatlar sifatini oshirish va aholining asosiy ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirish maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv uzoq muddatda nafaqat hududlarning ijtimoiy rivojlanish ko‘rsatkichlarini yaxshilaydi, balki mintaqqa iqtisodiyotining barqaror o‘ssishi uchun zarur inson kapitalini shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarida davlat buyurtmasi, davlat xaridlari va maqsadli moliyalashtirish instrumentlari alohida o‘rin tutadi. Ushbu vositalar orqali hududlarda ijtimoiy ahamiyatga ega obyektlarni qurish, ta‘mirlash, zamonaviy jihozlash, shuningdek, aholiga ko‘rsatilayotgan ta‘lim, tibbiy va madaniy xizmatlar sifatini oshirish mumkin. Davlat xaridlarining shaffof va samarali tashkil etilishi esa byudjet mablag‘laridan oqilona foydalanish, raqobat muhitini shakllantirish va korrupsion xavflarni kamaytirishda muhim omil hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy soha tashkilotlari uchun davlat xaridlarini hududiy ehtiyojlar va ustuvor rivojlanish maqsadlari bilan uzviy bog‘lash lozim.

Hududlarda ijtimoiy sohani rivojlantirishda subsidiya, subvensiya va transfertlar kabi moliyaviy vositalar ham muhim ahamiyatga ega. Mazkur vositalar mahalliy byudjetlarning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish, ijtimoiy soha obyektlarini qo‘llab-quvvatlash va xizmatlar sifati bo‘yicha hududlar o‘rtasidagi

tafovutlarni qisqartirishga xizmat qiladi. Biroq bunday mablag'larni taqsimlash mezonlarining aniq belgilanmaganligi yoki natijadorlik ko'rsatkichlarining yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi ularning samaradorligini pasaytirishi mumkin. Shu bois subsidiya va subvensiyalarni ajratishda hududlarning real ehtiyojlari, demografik holati, ijtimoiy infratuzilma darajasi va xizmatlar sifati ko'rsatkichlariga tayangan holda differensial yondashuvni qo'llash zarur.

**Xulosa va takliflar.** Hududiy rivojlanishni ta'minlash zamonaviy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, u institutsional, moliyaviy va huquqiy mexanizmlarning o'zaro uyg'unligini talab etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish jarayonida davlat tomonidan ishlab chiqilgan dasturlarni samarali amalga oshirish va ularning ijrosini muntazam monitoring qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv hududlar kesimida mavjud muammolarni aniqlash, ularni bartaraf etish hamda resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi. Hududiy rivojlanishda mahalliy byudjetlarning o'rni alohida ahamiyatga ega bo'lib, ular hududlarning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim moliyaviy instrument sifatida namoyon bo'ladi..Xulosa qilib aytganda, hududiy rivojlanishdagi tafovutlarni tartibga solishning samarali tizimini shakllantirish uchun institutsional, moliyaviy va tashkiliy mexanizmlarni takomillashtirish zarur. Ushbu jarayonda ilmiy asoslangan metodologik yondashuvlardan foydalanish, hududiy siyosatni izchil amalga oshirish hamda resurslardan samarali foydalanish hududlar barqaror rivojlanishini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati;**

1. Krugman, P. *Geography and Trade*. – Cambridge: MIT Press, 1991.
2. Vahobov, A., Jo'rayev, T. *Mintaqa iqtisodiyoti*. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.
3. Armstrong, H., Taylor, J. *Regional Economics and Policy*. – Oxford: Oxford University Press, 2000.
4. Samuelson, P., Nordhaus, W. *Economics*. – New York: McGraw-Hill, 2010.

5. Todaro, M., Smith, S. *Economic Development*. – Pearson Education, 2015.
6. Abdurahmonov, Q.X. *Ijtimoiy soha iqtisodiyoti*. – Toshkent, 2018.
7. Combes, P.P., Mayer, T., Thisse, J.F. *Economic Geography*. – Princeton: Princeton University Press, 2008.
8. Porter, M. *The Competitive Advantage of Nations*. – New York: Free Press, 1998.
9. World Bank. *World Development Report*. – Washington, 2023